

2025-yil 24-oktabr

## **“O‘zkimyosanoat” AJda xodimlar uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik tashkil etildi**



“O‘zkimyosanoat” AJda O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda Rossiya Federatsiyasi iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish va inson farovonligi sohasida nazorat federal xizmati huzuridagi “Epidemiologiya markaziy ilmiy-tadqiqot instituti” o‘rtasidagi hamkorlik doirasida Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan xodimlar uchun profilaktik tibbiy ko‘rik tashkil etildi.





Profilaktik ko'rikka mobil klinika, tor yo'nalishdagi malakali shifokorlar, shuningdek, laboratoriya mutaxassislari jalb etildi. Tibbiy tekshiruv davomida 150 nafar xodimlarning sog'lig'i holati atroflicha o'rganildi, ularning umumiy salomatlik ko'rsatkichlari baholandi, zarur tibbiy tavsiyalar berildi

hamda individual profilaktik choralar to'g'risida batafsil tushuntirish ishlari olib borildi. Mazkur tashabbus xodimlar sog'lig'ini mustahkamlash, yuqumli kasalliklarni erda aniqlash va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan.





**“O‘zkiyosanoat” AJ Matbuot xizmati**

**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-xodimlar-uchun-chuqurlashtirilgan-tibbiy>